



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI  
O'ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH  
AGENTLIGI DIREKTORINING  
BUYRUG'I**

---

---

66-son  
19-noyabr 2024-yil

**Tamaki mahsulotlari uchun texnik reglament kuchga kirishi bilan ushbu texnik reglament talablariga rioya etilishini ihtiyoriy ta'minlaydigan hamda texnik reglamentlarda belgilangan mahsulotning muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan, namunalar olish, sinash va o'lhash usullarini belgilaydigan standartlar ro'yxatlarini tasdiqlash to'g'risida**

**"Tamaki mahsulotlari to'g'risidagi" (Uz.TR.290-031:2024) texnik reglament (keyingi o'rinnlarda – texnik reglament) kuchga kiritilishi hamda O'zbekiston Respublikasining "Texnik jixatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuning 9-moddasiga muvofiq, buyuraman:**

1. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi hududida 2025-yilning 1-yanvaridan:

mazkur texnik reglament talablariga rioya etilishi ihtiyoriy ta'minlanadigan standartlar ro'yxati 1-ilovaga muvofiq;

texnik reglamentlarda belgilangan mahsulotning muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan, namunalar olish, sinash va o'lhash usullarini belgilaydigan standartlar ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. **Standartlar instituti** (D.Qodirov) mazkur texnik reglament bilan tartibga solinadigan mahsulotlarga yangi standartlar (barcha toifadagi) qabul qilinishi to'g'risidagi ma'lumot har oy yakuni bilan Texnik reglamentlar va standartlar bo'yicha dasturlarni amalga oshirish boshqarmasiga kiritib borsin.

**3. TRvaSBDAO** boshqarmasi (D.Xodjikariyev) taqdim etilgan yangi standartlarni belgilangan tartibda ushbu buyrug‘ning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan, texnik reglament talablariga rioya etilishi ta’minlanadigan standartlar ro‘yhatiga kiritib borsin.

**4. RvaAXTB** (F.Usmanov) va **TRvaSBDAOB** (D.Xodjikariyev) mazkur buyrug‘ bilan tasdiqlangan standart ro‘yhatlari O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining rasmiy veb saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

**5. “UzTest” DM** (J.Kattaxodjayev) **“Akkreditasiya markazi” DM** (A.Zakirov) va mazkur buyrug‘ning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bo‘yicha sertifikatlashtirish idoralarini va sinov laboratoriyalari akkreditatsiya soxasini kengaytirish choralarini ko‘rsin.

**6. Ijro nazorati, muroja tlar bilan ishslash va devonxona bo‘limi** (Z.Gafurov) O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tegishli tizim tashkilotlarini mazkur buyrug‘ bilan 2 kunlik muddatda tanishtirsin.

7. Ushbu buyrug‘ ijrosi ustidan nazorat direktorning birinchi o‘rnbosari A.Abdukayumov zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



A. Jumanazarov

Texnik jihatdan tartibga solish  
agentligining 2024-yil 19-noyabrdagi 66  
-sonli buyrug‘iga

1-ilova

**“Tamaki mahsulotlari to‘g‘risidagi” (Uz.TR.290-031:2024) texnik reglamenti kuchga  
kirishi bilan ushbu texnik reglament talablariga rioya etilishi ihtiyyoriy ta’milananadigan  
standartlar ro‘yxati**

| T/r | Texnik<br>reglamentning<br>tarkibiy<br>elementi | Belgilanish       | Nomlanishi   | Izoh |
|-----|---|-------------------|--|------|
| 1.  | 2-bob   | ГОСТ 858-2000     | Табак курительный. Общие технические условия<br>(Chekiladigan tamaki. Umumiy texnik shartlar)  |      |
| 2.  |   | ГОСТ 1505-2001    | Папиросы. Общие технические условия<br>(Papiroslar. Umumiy texnik shartlar)  |      |
| 3.  |   | ГОСТ 7823-2000    | Табак трубочный. Общие технические условия<br>(Trubkali tamaki. Umumiy texnik shartlar)  |      |
| 4.  |   | ГОСТ 8699-2013    | Сигары и сигариллы. Общие технические условия<br>(Sigaralar va sigarillalar. Umumiy texnik shartlar)   |      |
| 5.  |   | O‘zDSt 1142:2008  | Sigaretlar. Umumiy texnikaviy shartlar.  |      |
| 6.  |   | O‘zDSt 3517:2021  | Tarkibida nikotin bo‘lgan mahsulot. Qizdiriladigan tamaki mahsulotlari. Texnik shartlar  |      |
| 7.  |   | ГОСТ Р 58109-2018 | Жидкости для электронных систем доставки никотина. Общие технические условия<br>(Nikotinni yetkazib berish elektron tizimlari uchun suyuqliklar. Umumiy texnik shartlar) |      |